XXI ASR - IJTIMOIY BORLIQDA YOSHLAR MASALASI VA INSON OMILI

Omonova P. U., GDPI talaba
Ilmiy raxbar Shukurova U.U

Annotatsiya. Yoshlar masalasi har bir davrda dolzarb muammolar qatorida bo‘lgan. Ayni shu masalada jamiyat, davlat va dunyo bo‘yicha yoshlar borasidagi olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. ijtimoiy borliq, inson omili, stretegiya, globalizm, organik, noorganik, vertual va vizual, hissizlik, “Oltin qoida”

Annotation. The issue of youth has been one of the urgent problems in every era. In this issue, there will be talk about the ongoing work on youth in society, the state and the world.

Key words. social existence, human factor, strategy, globalism, organic, inorganic, virtual and visual, insensitivity, "Golden Rule"

Ijtimoiy hayot dunyo va insonlar borlig‘ini tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlat va jamiyatning ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlarni, insonlar turmush tarzi yaxshilanishi bilan bog‘liq holda amalga oshirishi tabiiy holdir. Aholining turmush darajasi, ma'naviy dunyoqarashi, farovonlik indeksi, yoshlarga e’tibor, xavfsizlik borasida uzoqqa mo‘ljallangan strategik loyihalar va ijtimoiy ko‘maklar berib boradi. Pirovardida, inson ma'naviy va tabiiy ehtiyojlarini zamonga mos ravishda rivojlantirib borish yotadi. Bu kelgusida yosh avlodning ma’nan va jismonan yetuk inson bo‘lib yetishishida o‘zining katta samarasini beradi. Yoshlar kelajak egalari, ularni har xil xavflar va tahdidlardan himoyalash bizning burchimizdir.

Insoniyat yaralibdiki, tabiat bilan hamohang holda yashab kelmoqda. Turli g‘oyalar qarashlar fikrlar negizida insonning tabiatga ta’siri kundan kunga ortib bormoqda. Tashqi olam bilan munosabatda inson o‘z harakatlarini tartibga solishga harakat qilib keladi.

Borliq- bu obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falsafiy tushuncha. U moddiy predmet olamidangina iborat emas. Borliq turli tushunchalarda namoyon bo‘ladi: organik va noorganik, biosfera, ijtimoiy borliq, ideal borliq (madaniy qadriyatlar, ilmiy bilimlarning umumiy prinsiplari tushunchalari), inson turmushini tashkil etadi. Bundan tashqari XXI asrda insoniyat kompyuter texnologiyalari rivojlanishi oqibatida vertual va vizual borliq tushunchasini ham insonlar hayotining bir qismiga aylanganligi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishning oson yo‘liga o‘tishi jarayonida yangi bir vertual borliqni yaratdi.

Bugungi zamon yoshlarini qanday tarbiyalash va o‘qitish dunyo hamjamiyatini hamisha yangicha fikrlashga, o‘zgarishlarni vaqtida, joyida taxlil qilishga majbur qilmoqda. Yoshlarni tarbiyalashda tizimli ishlar olib borilmoqda, bu boradagi o‘zimning taklif va mulohazalarimni aytib o‘tishni joiz deb hisoblayman.

1.Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan material va axborotni sinchiklab tekshirish, tanlash lozimligi juda muhim ahamiyat kasb etadi;

2.Zamonaviy va umumiy madaniyatni birlashtirgan holda baynalmilal madaniy qarashni shakllantish, o‘z xalqi madaniyatini chuqur o‘rgatish, hissiyot va tuyg‘ularini go‘zal qilib tarbiyalash vositasi sifatida madaniy o‘zlikni anglatish;

3.Oilada tarbiya jarayoni mas’uliyatini ota-onaning huquqiy majburiyati sifatidagi qarashlarni keng rivojlantirish, bola tarbiyalash "millatga buyuk xizmat " deya e’tirof etish;

4.Tarbiyaviy kuchlarni birlashtirish, tarbiya jarayonida diniy bilimlarni axloqiy barkamollikka erishish yo‘li ekanligiga ishontirish;

5.Kompyuter texnikasidan to‘g‘ri foydalanish borasida "oltin qoidaga " erishish choralarini izlash, voqelikni to‘g‘ri anglab yetishida ma’naviy tarbiyachilarning o‘rnini oshirish;

Inson ulg‘ayadi, shaxs sifatida shakllanadi, o‘zining individual xislatlarini jamiyat orasida rivojlantiradi, hayotga tadbiq qiladi.

A.S.Makarenkonining "Nega biz texnik universitetlarda materiallarning qarshiligini o‘rganamiz, lekin pedagogik universitetlardagi odam ularga ta’lim berishni boshlaganda qarshilik ko‘rsatmaydimi" degan fikrini tahlil qilsak, yosh avlodni tarbiyalashda qarshiliklarga duch kelinadi, lekin biz buni ko‘p hollarda chuqur o‘rganmasdan yuzaki yondashamiz.

Texnik materiallarning qarshiligini o‘rganib unga yechim izlaymiz-u, bolalarga tarbiya berishda ulardan bo‘ladigan qarshilikni o‘rganmaymiz deya tarbiyachilardan har bir jarayonga jiddiy munosabatda bo‘lishni talab etgan.

Texnika va texnologiya rivojlangani sari insonlar orasidagi muloqot ham kamayib vertual tarzdagi muloqot jarayoni keng ko‘lamli "hissizlik" holatini keltirib chiqarmoqda. Bolalar va yoshlar orasida gajidlarga bog‘lanib qolish kasalligi har xil sindiromlarni paydo qilmoqda.

Jamiyatimizdagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Bunda yaxshi o‘qiyotgan, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo‘lgan 4,4 million yosh “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan.

Ta’lim va tarbiya jarayonida ham katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda, sun’iy intellektning yaratilishi kelajakda ta’lim tarbiyaning pedagog kadrlar tomonidan berilishida katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. "Zamonaviy pedagogika inqirozi " sun’iy intellektning rivojlanishi ta’limni o‘tirgan joydan hech qanday harakatsiz va inson ishtirokisiz o‘rganish imkonini beradigan o‘zgarishlar bo‘lishi taxmin qilinadi.

Xulosa

XXI asr ijtimoiy hayoti (borliq)da yoshlar masalasida to‘xtalish, kelgusida vatan taraqqiyotini ta’minlovchi avlodni tarbiyalash, ularni raqobatbardosh qilib, mehnat bozorida munosib o‘rin egallashida ta’lim va tarbiyaning o‘rni, ahamiyatini ko‘rsatib berish lozimligi; ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy hissizlik, ommaviy madaniyat, ommaviy ongsizlik kabi tahdidlarni oldindan mulohaza qilish va yechim topish borasida oz bo‘lsada tushuncha hosil qilishida fikrlarimning foydali bo‘lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi (2000- y 1-jild);
2. M. Behbudiy “Padarkush” dramma (1911-y);
3. E. Yusupov “Falsafa” (1996-y);
4. A.A. Axmedov “ Ijtimoiy pedagogika” Buxoro-2023;